

SHAXS TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLANING HAMJIHATLIGI

Abdisamatova Mohinur Abdijalil qizi

Termiz davlat pedagogika institutining boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Har bir ulg‘ayayotganyosh jamiyatning kelgusi vorislari. Ularni vatanparvar, ilmli eng avvalo vijdonli qilib tarbiyalash har bir tarbiyachining vazifasi. Biz bunday ma’suliyatli ishga befarq qaramasligimiz lozim. Bu jarayonda oila, mahalla va maktab hamkorlikni yanada mustahkamlasa yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: mahalla, oila, jamiyat, vazifa, hamjihatlik, maktab, shaxs komil inson, haqqoniylilik, qadriyat.

Biz hozirda rivojlanayotgan, taraqqiy etayotgan zamonda yashamoqdamiz. Atrofimizda ko‘z ochib yumguncha ko‘p o‘zgarishlar bo‘lyapti. Bunday jarayonlarga ancha ko‘nikib qoldik. Hozir bizning oldimizda turgan eng katta ishimiz yosh avlodni bu zaminga munosib qilib tarbiyalashdadir. Biz bu jarayonda eng avvalo o‘zimizni moslashtirib so‘ngra kelajak yoshlariga o‘rgatishimiz zarurdir. Farzand tarbiyasi eng avvalo oiladan boshlanadi. Oilada bola ilk tarbiyani oladi. Shuning uchun oiladagi sog‘lom muhitga, ularning hamjihatligiga e’tibor qaratishimiz, kezi kelganda bu narsalarni tashkil etishda ko‘mak berilishi ham kerakdir. Xalqimizda bir naql borku "Qush uyasida ko‘rganini qiladi". Oila boshlari farzandga shunday o‘rnak bo‘lsinki ulardan andoza olgan bola kelgusida fozil inson bo‘lib yetishsin. Hozirgi kunda mamlakatimizda oilalarning tinchligi, ularning o‘zaro o‘zaro munosabati ya’ni, qaynona va kelin, ota va o‘g‘il kabi insonlarning o‘zalo muloqotiga, oilalardagi sog‘lom psixologik muhitga e’tibor berilyapti. Mahallalarda yosh oilalarga tushuntirish

ishlari olib borilyapti. Sababsiz ajratishlari oqibatida o‘rtada qo‘li ketayotgan farzandlarning kelasi taqdirlari haqida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bu jarayonlarning barchasi faqat va faqat yoshlar uchun ularning kelajagi uchundir.

Ikkinci tarbiya maskani bu mahallalar. Mahallada bola o‘ynab kulib voyaga yetadi, qaysidir ishlari bilan mahalladoshlari uning tarbiyalanishiga sabab bo‘ladi. Aytishadiku "Bir bolaga yetti mahalla ota-onasi". Yana bir tarbiya maskani bu maktabadir. Bu yerda ham tarbiyalanadi ham bilim olamiz. Ota-onalari bag‘ridan chiqib endi maktab ostonasiga qadam qo‘ygan yosh bir go‘dakni bag‘riga ustozlar olib ularni o‘z farzandlaridir ertalab, odob-axloqdan va dunyo bilimlaridan saboq beradi. Mitti niholchalar bu yerda serhosil bir daraxt bo‘lib shakllanadi. Bu nihollarni parvarishlash davomida oila, maktab va mahalla hamjihatlikda ish olib borishi kerak. Chunki hamma ma’suliyatni maktabga tashlab qo‘ysak bu nihollari kamroq hosil olamiz ya’ni parvarishlanmagan narsadan mo‘l hosil kutib bo‘lmaydi. Shu sababli bolaning nimalarga qiziqishi, kimlar bilan ko‘proq bo‘lishini ular bilan ko‘p vaqtini vaqtini o‘tkazishini bilgan holda kun tartibini tuzib berilishi kerak. Mana masalan bola ko‘proq sportga qiziqadi, futbolni juda yaxshi o‘ynaydi, ammo uning ota-onasi uning iqtisodchi bo‘lishini xohlaydi, shu sababli uni matematika to‘garagiga majburlab berishgan bola orasidan qo‘rqqani uchun majburligidan bu to‘garakka boradi. Hech narsani o‘rganmaydi o‘rganishni ham xohlamaydi. O‘qituvchi bu narsani sezib bolaning ota-onasi bilan gaplashadi, o‘g‘liga sharoit yaratib uni sport to‘garagiga berishsa kelajakda buyuk futbolchi bo‘lishiga ishontirdi ota-onasi ham o‘zlarining qilgan ishlaridan pushaymon bo‘lib o‘z xatolarini to‘g‘irlaydilar. Bu misol ham biz aytayotgan fikrlarga mos keladi, ya’ni qay ma’noda bolaning kelajagiga bitta ota-ona qayg‘urmay barcha maslakdoshlar qo‘llab bir- birini ish tutsa hech kimga qiyin bo‘lmaydi. Bu degani ba’zida ota - ona ham adashish mumkin. Barchalari birga ish olib borishsa yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. Ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchilar. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: birinchidan yosh avlodga o‘zligimizni, muqaddas an’ analarimizni anglash tuyg‘ularini xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini jamiyatimiz oldiga bugun mavjud bo‘lgan hur fikrlikdan

qat’iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan yagona g‘oya milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash yurtimizdagi o‘quvchi yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir. Oila, maktab va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir sog‘ligida va aqlida nuqsoni bo‘lgan farzandlarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb - korlik berishdan iborat. Ota-onaning farzand oldidagi burchi o‘zbekona ta’bir bilan aytganda farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga berib savodini chiqarish, ilmli kasb - hunarli, oilali va uyali- joyli qilishdan iboratdir. Oiladagi, mahalladagi moddiy va ma’naviy ehtiyojlar kishilarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlaydi shaxsning ma’daniy saviyasini ko‘taradi. Ichki ma’daniyatning tarkibiy qismi hisoblangan milliy qadriyatlar, ya’ni an’ana va urf - odatlar inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi. Zero an’ana urf- odamlarning yoshlari ruhiyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir kuchini ota-onalar, mahalla va o‘quv muassasalari doimo nazarda tutmoqda darkor. Ota - bobolarimizdan qolgan chiroyli va ramziy ma’noga ega bo‘lgan urf- odatlarni bilish bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf- odatlarning o‘tkazilish tartibini qonun- qoidalarini bilish yoshlarni ma’naviy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shunday malaka va ko‘nikmalarni yoshlarda tarkib toptirish vazifasi avvalo oila, mahalla va maktab jamoasiga yuklatiladi. Bunday tarbiyaviy tadbirlarning ko‘plab olib borilishi natijasida jamoa vakillari kelajakda yurti uchun fidoyi va jonkuyar bo‘lgan komil insonlarni yetkazib beradilar. Shu sababli bu uch tashkilotlarning hamkorligi va hamjihatligi doimo bardavom va samarali bo‘lsin deymiz. Chunki hozirda vatan uchun uning kelajagi uchun qayg‘uradigan yoshlar kerakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Musurmonov, X.Ibragimova "Umumiyl pedagogika" darslik Toshkent
2. Nishonova.S "Komil inson tarbiyasi" Toshkent 2003
3. R.Mavlonova, To'rayeva.O K. Xoliqberdiyev " Pedagogika" Sharq 2005
4. R.D.Norqobilova , P.Nazarov "Pedagogical Possibilities of education of young generation at Abu Rayhon Beruni teaching" June 2022
5. R.D.Norqobilova "Methods of Forming Beatiful writing skills in Primary school students" June 2022
6. R.D.Norqobilova "Pedagogical basis of interdisciplinary communication in the educational process" Oct 2020

